



## Britaniya Ta'lif Standartlari O'zbekistonda

### Britaniya Ta'lif Standartlari O'zbekistonda

Endi Britaniya universiteti diplomini O'zbekistonda qo'lga kriting Yangi tashkil etilgan **Xalqaro Malakalar va Baholash Markazi (IQAC)** orqali jahon darajasidagi ta'lif endi yanada yaqinroq bo'ldi.

### Biz haqimizda

O'zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Strategik islohotlar agentligi tashabbusi bilan, Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi hamkorligida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan IQAC tashkil etildi. Markazning asosiy maqsadi - xalqaro mezonlarga moslashtirilgan ta'lif dasturlarini mahalliy miqyosda taqdim etish.

### Xalqaro standartlar, mahalliy ahamiyat

IQAC tomonidan taklif etilayotgan 3, 4, 5, 6 va 7-darajadagi (professional akademik) malakalar Angliya OFQUAL tomonidan tasdiqlangan **RQF (Regulated Qualifications Framework)** standartlariga mos ravishda ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, ular O'zbekistonning milliy ta'lif tizimi bilan uyg'unlashtirilgan.

IQAC 3-7 darajadagi RQF asosidagi dasturlarni ishlab chiqadi va akkreditatsiyadan o'tkazadi. Ushbu dasturlar quyidagi yetakchi O'zbekiston universitetlarida hamkorlikda amalga oshiriladi:

- Toshkentdaggi INHA Universiteti;
- Toshkent Arxitektura va Qurilish Universiteti;
- Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti;

Mazkur dasturlar xalqaro miqyosda tan olinadi. Bu Chartered Management Institute (CMI) hamda quyidagi nufuzli Britaniya universitetlari bilan hamkorlikda ta'minlanadi:

- Gloucestershire Universiteti;
- Hertfordshire Universiteti;
- QA Higher Education;
- Northumbria Universiteti;



+998-71-200-20-24



[www.iqac.asr.gov.uz](http://www.iqac.asr.gov.uz)



[info@iqac.asr.gov.uz](mailto:info@iqac.asr.gov.uz)



[@iqac.uz](https://www.instagram.com/iqac.uz)



## Britaniya Ta'lif Standartlari O'zbekistonda

- Ulster Universiteti
- West London Universiteti
- Central Lancashire Universiteti
- Wolverhampton Universiteti
- va boshqalar.

### OFQUAL va RQF haqida

OFQUAL (Qualifications and Examinations Regulation Office) - Angliyada faoliyat yurituvchi mustaqil davlat regulyator idorasi (Britaniya parlamentga bo'y sunuvchi tashkilot) bo'lib, malaka va imtihonlarni tartibga soladi. U ta'lif sifati, adolatliligi va xalqaro darajadagi tan olinishi ustidan nazorat qiladi.

RQF (Regulated Qualifications Framework) esa Angliyadagi malaka darajalarini 1-darajadan 8-darajagacha tasniflaydi va ta'lif natijalari hamda kredit birliklarining barqarorligini ta'minlaydi.

### IQAC tomonidan O'zbekistonda taklif etilayotgan yo'nalishlar

- Axborot Texnologiyalari: Kiberxavfsizlik, Ma'lumotlar Ilmi va Sun'iy Intellekt ta'lif yo'nalishlari;
- Biznes Boshqaruvi;
- Arxitektura;
- Muhandislik;
- Turizm va Mehmondo'stlik.

### Angliya RQF standartlari asosida o'qishning afzalliklari

- **Erta boshlanish:** 10-11-sinflarda o'qiyotgan o'quvchilar allaqachon 3-darajali (International Foundation) dasturga kirishlari mumkin.
- **Uzluksiz rivojlanish:** 3-darajali diplomga ega bo'lgan talabalar 4-darajaga, ya'ni Britaniya bakalavriatining birinchi bosqichiga o'tishlari mumkin.
- **Moslashuvchan yo'llar:** Talabalar 4, 5, va 6-darajalardagi o'qishni O'zbekistondagi hamkor universitetlarda davom ettirishlari yoki Britaniyadagi nufuzli universitetlarga o'tishlari mumkin



+998-71-200-20-24



[www.iqac.asr.gov.uz](http://www.iqac.asr.gov.uz)



[info@iqac.asr.gov.uz](mailto:info@iqac.asr.gov.uz)



@iqac.uz